

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

FarDU.
ILMIY
XABARLAR-

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

3-2025
IJTIMOIIY
FANLAR

НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

Sh.T.Abbosova	
Ma'furaviy tahdidlarni bartaraf etishda milliy g'oyaning ro'li	98
Б.А.Абилова	
Суфийские ордена и их роль в историко-политических процессах средневековья	102
X.Q.Abdumutalov	
Yangi O'zbekistonda komil insonni shakllantrishda milliy g'oyaning o'rni.....	107
M.M.Gulamova Xoja	
Muhammad Porsoning irfoniy qarashlarida insonning ma'naviy kamoloti va ontologik mohiyati ..	110
R.Sh.Alisher	
Mirbobo Naqshbandiyni inson kamoloti qalbni sayqallash, unga ma'naviy ozuqa berish haqidagi mulohazalari	115
S.S.Hamroyev, D.Sh.Shuxratova	
Yangi O'zbekistonda oila institutini isloh qilishning ijtimoiy-huquqiy asoslarining ishlab chiqilishi	119
F.S.Qosimov	
Falsafa nigohida inson kapitalining shakllanishi va taraqqiyotdagi roli.....	124
B.M.Madaminov	
Yoshlarni axloqiy tarbiyalashda o'zbek xalqi milliy qahramonlik tuyg'usini mustahkamlashning nazariy-metodologik asoslari	129
F.F.Dadaboyev	
Yangi O'zbekistonda tadbikorlik faoliyatining rivojlanishida halollik va axloqiy qadriyatlarning ijtimoiy roli	133
M.O.Oripova	
Jamiyatda inson begonalashuvi fenomenining mohiyati va falsafiy mazmuni	137
Д.Р.Вахабова	
Возникновение философских взглядов в персидско-таджикской литературе (Абу Абдулла Рудаки)	142
A.A.Salmonov	
Inklyuziv jamiyat: tushuncha va falsafiy tahlili.....	147

SIYOSAT

A.A.Ahrorqulov, A.To'xtasinov	
Oliy ta'lim sohasida korrupsiyaviy xavf-xatarlarning kelib chiqish omillari	152
G.O.Sa'diyeva	
Markaziy Osiyodagi zamonaviy geosiyosiy tendensiyalar	156
R.A.To'ychiyeva	
Yangi davrda Hindiston tashqi siyosatidagi o'ziga xos ustuvor va farqli jihatlar	163
D.Mamadjonova	
Prokuratura tizimida inson huquqlarini himoya qilish: qonunchilik asoslari va amaliyot	172
X.Qodirov	
Nodavlat notijorat tashkilotlar tizimida kasaba uyushmalarining tutgan o'rni.....	176
P.I.Ovulov	
Bozor munosabatlariga o'tish davrida davlatning fuqarolik-huquqiy munosabatlarda ishtirok etishi	180

TARIX

B.B.Iminov	
O'zbekiston Respublikasida nodavlat ta'lim muassasalarining vujudga kelish tarixi	185
A.U.Hamroyev	
Amir Haydar – ijtimoiy adolat tarafdori bo'lgan hukmdor.....	190
A.U.Hamroyev	
Gulshanul muluk asarida mang'itlar boshqaruvi davrida jamiyat iqtisodiy hayotining yoritilishi	194
M.M.Azimova	
Farg'ona vodiysida qishloq-vrachlik punktlari faoliyatidagi o'zgarishlar tahlili.....	198



UO'K: 94(575.1)"18"+321.01+17.023.34

AMIR HAYDAR – IJTIMOYIY ADOLAT TARAFDORI BO'LGAN HUKMDOR**АМИР ХАЙДАР – ПРАВИТЕЛЬ, ПОДДЕРЖИВАЮЩИЙ СОЦИАЛЬНУЮ СПРАВЕДЛИВОСТЬ****AMIR HAYDAR – A RULER WHO SUPPORTED SOCIAL JUSTICE****Hamroyev Asliddin Umed o'g'li** 

Buxoro davlat universiteti, Arxeologiya va Buxoro tarixi kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqola XIX asr Buxoro amirligining yirik vakili Amir Haydar faoliyatining ijtimoiy-adolatparvarlik tamoyillari asosida olib borilgan siyosatini tahlil qilishga bag'ishlangan. Tadqiqotda Amir Haydarning boshqaruv uslubi, uning jamiyat taraqqiyotiga, adolatli boshqaruv va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga qo'shgan hissasi falsafiy, tarixiy va ijtimoiy nuqtai nazardan o'rganiladi.

Amir Haydar hukmronligi davrida adolat, qonuniylik, din va urf-odatlar uyg'unligiga asoslangan boshqaruv siyosati orqali xalqning turmush darajasini yaxshilash, mahalliy boshqaruv tizimini isloh qilish, ma'naviyat va ta'limga e'tibor kuchaytirish kabi islohotlar amalga oshirilgan. Shuningdek, maqolada Amir Haydarning vakf tizimini mustahkamlash, mudarris va talabalarni moddiy qo'llab-quvvatlash, diniy-ma'rifiy maskanlarni obod qilish kabi tashabbuslari alohida e'tirof etilgan.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, Amir Haydarning faoliyati ijtimoiy adolat konsepsiyasining tarixiy namunasi sifatida zamonaviy boshqaruv va ijtimoiy islohotlar uchun ham dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Аннотация

В данной статье подчёркивается, что в каждом государстве богатство народа определяет могущество его войска. Для осуществления постоянных и непрерывных военных походов необходима экономическая основа. Это общеизвестное правило. С этой точки зрения, когда в произведении Мухаммада Якуба Бухорийского описываются военные походы правителей из династии мангытов, их усилия по объединению страны и созданию централизованного государства, также обращается внимание на экономические возможности государства. В наши дни эта медресе, по инициативе и указанию нашего Президента, была восстановлена и вновь стала местом паломничества. Мы узнаём о делах, осуществлённых Амиром Шохмурадом на пути развития общества. Таким образом, анализируется, как он наладил работу вакуфов - особой системы того времени, с целью обеспечения регулярной выплаты заработной платы и пенсий мударрисам (преподавателям) и студентам, работающим и обучающимся в мечетях и медресе.

Abstract

This article highlights that in every state, the wealth of the people determines the strength of its army. In order to conduct continuous and relentless military campaigns, economic support is essential. This is a universally acknowledged principle. From this perspective, when describing the military campaigns of the Manghit rulers in Muhammad Yaqub Bukhariy's work, their efforts to unite the country and build a centralized state are accompanied by references to the nation's economic capabilities. Today, this madrasa has been reconstructed and transformed into a pilgrimage site once again, following the initiative and directive of our President. We learn about the efforts made by Amir Shohmurod for the development of society. Specifically, the article analyzes how he successfully organized the system of waqf-a unique institution of that time-in order to ensure the regular payment of salaries and stipends to teachers (mudarris) and students working and studying in mosques and madrasas, as part of his broader plan to restore and maintain religious and educational institutions.

Kalit so'zlar: Amir Haydar, ijtimoiy adolat, buxoro amirligi, adolatli boshqaruv, ma'rifatparvarlik, diniy-ma'naviy islohotlar, mahalliy boshqaruv, tarixiy hukmdorlik, davlat siyosati, ma'naviyat va ta'lim, ijtimoiy barqarorlik, falsafiy yondashuv, ulamolarni qo'llab-quvvatlash, adolat konsepsiyasi.

Ключевые слова: Амир Хайдар, социальная справедливость, Бухарский эмират, справедливое управление, просвещение, религиозные и духовные реформы, местное самоуправление, историческое правление, государственная политика, духовность и образование, социальная стабильность, философский подход, поддержка ученых, концепция справедливости.

Key words: Amir Haydar, social justice, Bukhara Emirate, fair governance, enlightenment, religious and spiritual reforms, local governance, historical rule, state policy, spirituality and education, social stability, philosophical approach, support for scholars, concept of justice.

KIRISH

Ma'lumki, mang'itlar sulolasi Buxoroda hukmronlik qilgan oxirgi sulola bo'lib, ularning amalga oshirgan ishlari to'g'risida turlicha yondashuvlar mavjud. Mang'itlarning birinchi hukmdor vakili Muhammad Rahimbiy bo'lsa-da, biroq undan keyin taxtga o'tirgan ukasi Muhammad Doniyolbiy sulola asoschisi sifatida tarix sahniga keldi. Chunki, Muhammad Doniyolbiyning farzandlari mazkur sulola hukmronligini saqlab keldilar.

Mang'it hukmdorlarining barchasi o'z davrida davlatni boshqarishga adolat tamoyillariga amal qilishga intilishgan bo'lsa-da, ular orasida xalqqa ko'proq e'tirof etilgani Muhammad Doniyolbiyning birinchi o'g'li Asmir Shohmurod bo'ldi. Uning mamlakat tinchligi va osoyishtaligini ta'minlash maqsadida amalga oshirgan ishlari, ichki va tashqi siyosatdagi pozitsiyasi xalqqa manzur bo'lib, u "Amiri Ma'sumi G'oziy", ya'ni "G'oziy bo'lgan begunoh amir" nomi bilan shuhrat topdi. Uning o'g'li Air Haydar ham taxtga kelganida shubhasiz, xalq otasi kabi adolatli va raiyatparvar shohni ko'rishni istagan. Biroq, uning taxtda o'tirgan yillari oson kechmagan. U taxtda kechgan umrini mamlakatni buzmoqchi bo'lgan buzg'unchi guruhlar, ichki nizolar va turli muammolarni bartaraf etishga sarflagan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Amir Haydarning hukmdorlik faoliyati to'g'risida bir necha tarixiy manbalar bo'lib, ularning ichida eng ishonchli va asosli ma'lumotlarni "Maktuboti Amir Haydar", ya'ni "Amir Haydarning maktublari" nomi bilan yetib kelgan matublar jamlanmasi beradi. Unda Amir Haydarning turli yillarda davlat rahbarlari bilan qilgan yozishmalari jamlangan bo'lib, bu yozishmalarning mazmuni buyruq, topshiriq, ko'rsatma, farmon va farmoyish mazmuniga yaqindir. Bu maktublar mazmuni orqali biz Amir Haydarning rahbar sifatidagi shaxsiy xususiyatlarini tahlil qilishi imkoniga ega bo'lamiz.

Maktublar o'z navbatida jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-axloqiy, iqtisodiy vaziyat haqida muayyan ma'lumotlarni beradi. Ayniqsa, biz unda Amir haydarning ijtimoiy aolat tarafdori bo'lganini, shuningdek, mamlakat tinchligi va xavfsizligini ta'minlashda davlat rahbari, harbiy qo'mondon sifatida ko'plab muammolarni yechishga ularning tub mohiyatiga e'tibor qaratishga harakat qilganini ko'ramiz.

Maktublarning birida Amir Haydarning hukumatdagi mansabdor shaxslarning muammolariga e'tiborsiz bo'lmagan bir maktubni uchramiz. Uning mazmuni quyidagicha:

"Izzat va jasorat sohibi, davlatning ishongan kishisi Hakim Devonbegi voqif bo'lsinlarkim, muborazatpanoh Qilich To'qsobaning Nazarjon zimmasida ikki yuz yetmish ikki ashrafiy qarzi bor ekan. Uning qo'lida buni tasdiqlovchi qoziyul quzzotning shar'iy xati mavjud. Buyuramizki, To'qsobaning mazkur ashrafiylari qarzdordan undirib berilsin. Assalomu alaykum".

Maktubning asosiy jihatlariga e'tibor qaratilsa, bunda biz Amir Haydarning kuchli rahbar ekanligini ko'ramiz. Bu jihatlar quyidagilarda ko'rinadi:

Birinchi, Amir Haydar o'zining qo'li ostida ishlayotgan mansabdorlarning muammolari bilan tanishib borgan va birontasini e'tibordan qoldirmagan. Bu o'z navbatida uning o'z rahbarlik burchiga sadoqatli ekanligini ko'rsatib turibdi.

Ikkinchi, agar bu ikki mansabdor orasidagi mazkur muammo ijobi va adolatli hal etilmasa, mamlakat orasida guruhbozliklar va tarafkashliklar paydo bo'lishiga zamin yaraladi. Negaki, bu ikki mansabdor orasida qarz oldi-berdi masalasi hukmdor qulog'igacha yetib boribdimi, demak, u yirik muammoga aylangan. Shuning uchun uni zudlik bilan hal etish kerakligini Amir Haydar yaxshi tushungan.

Uchinchi, mazkur maktubda Amir Haydar o'zining mamlakatidagi joriy qonun-qoidalar tarafdori bo'lgani ko'rinadi. Chunki maktubda Amirning mazkur qarz oldi-berdisi to'g'risida mamlakat bosh qozisining shar'iy xati mavjud ekanligini ta'kidlangan. Bu esa o'z navbatida devonbening masalani adolatli hal etishiga turtki bo'lishi tayin. Negaki, masalaning qonuniy ekanligidan davlat rahbari xabardor.

To'rtinchi, maktubda Amir Haydar devonbegi Hakimbiyga masalani zudlik adolatli hal qilishiga ishora qilingan "Buyuramizki, To'qsobaning mazkur ashrafiylari qarzdordan undirib berilsin", degan jumla mavjud. Bu davlat rahbarining vaziyatni to'liq tushunib turganidan va ijtimoiy adolat tarafdori sifatida qonuniy va qat'iy buyruq berayotganini anglatib turibdi. Maktubdan shu va shu kabi yana boshqa ma'nolarni anglash mumkin.

Amir Haydarning yana bir shu mazmunga yaqin bir maktubini ko'rib o'tamiz. Mazkur maktub Amir Haydar davlat va mamlakatning asosiy iqtisodiy tayanchi bo'lgan soliqlar masalsi bilan bog'liq. Maktub mazmuni quyidagicha:

"Amirlik va xoqonning ishonchli kishisi, Muhammad Hakimbiy Mehtarga.

Podshohona marhamatlardan sarafroz bo'lgan holda bilsinlarkim, Niyozmuhammad Mirkon Qipchoq o'zining solig'ini To'qmang'it elatiga berib yurar ekan. Hozir ham solig'ni ularga bergan. Ko'chkak fuqarolari esa undan bir tillo va besh tanga solig' olishibdi. Darhaqiqat, shunday bo'lgan bo'lsa, Ko'chkak fuqarolaridan bir tillo va besh tangani olib, Niyozmuhammad Mirkonga olib bering. Assalomu alaykum".

Soliqlardagi xatoliklar o'z navbatida davlat va uning rahbariga, hukumatiga ishonchsizlikka sabab bo'lishi bilan birga noroziliklarni ham vujudga keltiradi. Shuning uchun soliq borasidagi har qanday xato va kamchiliklarni o'z vaqtida bartaraf etish kerak bo'ladi. Noto'g'ri olingan soliqning miqdori juda kam bo'lgan taqdirda ham uning mamlakat tinchligiga xavfi juda katta hisoblanadi. Amir Haydar shu tomonlarni juda yaxshi tushungan hukmdor sifatida bu xatoni tuzatish yo'lini ham o'zi ko'rsatib bergan.

Amir Haydar mamlakatdagi ijtimoiy masalalar bilan ham muntazam shug'ullanib kelgan. "Maktuboti Amir Haydar"da bunga juda ko'plab misollarni uchratamiz. Maktubotdagi 84-maktubda suv bilan bog'liq masala va uning yechimi ko'rstilgan. Maktub mazmuni quyidagicha:

Amirlikda izzat egalari, qadri baland ishonchli kishilar Niyozbekbiy va Muhammad Hakim Devonbegi.

Podshohona inoyatlardan sarafroz bo'lgan holda bilsinlarki, Hamroh Nadbek orqali yuborgan arzingiz yetib keldi. Uning mazmunidan humoyun zehnimiz xabar topdi. Fuqarolar Do'stbekbiy va Mirzo Alibiylar masalasida ularning o'zlariga yozib yuborildi. Qolgan gaplarni Odina Uydachi bilan Oshur Uydachi og'zaki yetkazadi.

Viloyatdagi barcha ariqlarning mirobligi sizlarga o'tkazildi. Assalomu alaykum.

Maktubdan Amir Haydarning devoniga kelayotgan barcha maktublardan xabardorligi ko'rinib turibdi. U adolatni ta'minlash maqsadida mamlakatning turli tomonlaridan keladigan xabar va maktublarga befarq bo'lmagan. Ularning mazmunidan ogoh bo'lib, ayni paytda hal etish yo'llari bilan ham shug'ullangan.

Mazkur maktubning "Qolgan gaplarni Odina Uydachi bilan Oshur Uydachi og'zaki yetkazadi", degan gapidan yana bir jihatni anglash mumkinki, Amir Haydar maktubda barcha gaplarni ochiq-oydin yozavermagan, balki masalaning nozik tomonlarini xatni olib borayotgan ishonchli kishilari orqali og'zaki aytib yuborgan. Bu esa ayni paytda turli ortiqcha gap-so'zlarning hamda har xil fitnalarning oldini olgan.

Xuddi shunday uslubda yozilgan keyingi maktubda hukmdorning turli mansabdorlarni tayinlashda ham shu usulni qo'llashi ma'lum bo'ladi. Maktub mazmuni quyidagicha:

Izzat sohibi, amirlikda o'z o'rniga ega, davlatning ishonchli kishisi Muhammad Hakim Devonbegiga.

Podshohona marhamatlardan sarafroz bo'lgan holda bilsinlarkim, dargohga yo'llagan arizangiz yetib keldi. Uning ixlosga to'la mazmunidan xabardor bo'lindi. Alhamdulillah, biz adolatshior sifatimiz bilan to'la xotirjamiz.

Xolis kishilarimizdan bo'lgan Oshurjon devonbegini Maymanoq, Qishloq, Xo'ja Muborak, So'fiyon va Obdoriga dorug'a qilib tayinladik. Siz mazkur Oshurjon Devonbegiga o'zingizning ishonchli kishilaringizdan birini hamroh qiling. Qolgan gaplarni dargohga yuborgan kishingiz orqali og'zaki aytib yuboriladi. Assalomu alaykum."

Bu yerda Amir Haydar "Siz mazkur Oshurjon Devonbegiga o'zingizning ishonchli kishilaringizdan birini hamroh qiling. Qolgan gaplarni dargohga yuborgan kishingiz orqali og'zaki aytib yuboriladi", deyishi orqali amirlikda mavjud yozilmagan qonunlar borligini ko'rsatib bergan. Demak, hukumat ishlarida hamma vaqt ishonchli kishilardan foydalanilgan va maktublarda hamma qirralar ko'rsatib o'tilmagan.

Maktublardaga bu uslub harbiy-siyosiy masalalarning bayonida ham ko'zga tashlanadi. Bunda umumiy mazmun va amalga oshirilishi ko'zda tutilgan masalalar qisqa va umumiy aytilib, amalga oshirish mexanizmlari sir tutiladi va maktubni olib borgan kishi orqali og'zaki yetkaziladi.

Quyidagi maktubda biz buning isbotini ko'ramiz:

"Amirlik himoyachilari, izzat egalari, ishonchga kirganlar va qadri balandlar Niyozbekbiy hamda Muhammad Hakimbiy Devonbegilarga.

TARIX

Podshohona marhamatlardan bahramand bo'lgan holda bilsinlarki, ko'z qorachig'imiz bo'lgan amirzoda Muhammad Husaynning atrofida yurgan ayrim odamlar ig'vo qilib, uni yo'ldan chiqarib, fisqu fasodga bandi bo'lganlar. Amirzodaning ayrim davlatxohlari uni qo'yarda qo'ymay bizning ziyoratimizga yuborib, o'zlari Samarqand arkini egallab olishibdi.

Inshaallohu ta'olo biz hayitdan so'ng davlatu iqbol bilan qo'shin tortib, Samarqandga boramiz. Sizlar biron maslahatni lozim topsangizlar xoh Karminaga bo'lsin, xoh Xatirchiga bo'lsin, rikobni o'pishga kelib, rikobi humoyonga bildiringlar. Qolgan og'zaki gaplarni maktubni olib borgan Rahimbek sizlarga yetkazadi. Assalomu alaykum."

XULOSA

Yuqoridagi maktub bu taxt uchun kechgan kurashlarni anglatib turadi. Amir Haydar bunda o'zining birodarini ayblashdan tiyilib, aslzodalarga xos axloq bilan "Sulton suyagini xo'rlamas" degan hikmatli gapga xos tarzda uning atrofida yurgan odamlarning fisqu fujurga berilgani va taxtni undan tortib olmoqchi bo'lganini bayon qilgan. Maktubda maqsad ochiq aytilsa ham uni amalga oshirish usullari va mexanizmlari sir saqlangan. "Qolgan og'zaki gaplarni maktubni olib borgan Rahimbek sizlarga yetkazadi", degan jumla buni ko'rsatib turibdi.

"Maktuboti Amir Haydar"dagi maktublar ilmiy-tarixiy jihatdan tadqiq qilinsa, ularda mang'itlar hukmdorligining o'ziga xos jihatlari bilan birgalikda, milliy davlatchiligimizning tarixiy ildizlarini ko'ramiz. Ulardagi har bir joy va shaxs nomlariga aniqlik kiritib, yana yangi ma'lumotlar bilan boyitilsa, bu yosh avlod ongida tarixiy davlatchiligimizga nisbatan hurmat, ajdodlarga nisbatan faxr tuyg'usini shakllantirishi shubhasiz.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Шарқшунослик институтининг Абу Райҳон беруни номидаги қўлёзмалар фонди. Қўлёзма № AP-5412, 20-мактуб, 10-бет.
2. Hamroyev, A. U. (2024). The Significance of the Work History of Khumuli" in Documenting the Mangit Period's History. *Central Asian Journal of Social Sciences and History*, 5(7), 293-297.
3. Hamroyev, A. (2024). AMIR HAYDAR-THE LUMINARY OF KNOWLEDGE AND SCIENCE (BASED ON THE WORK "MAKTUBOTI AMIR HAYDAR"). *Теоретические аспекты становления педагогических наук*, 3(13), 72-75.
4. Hamroyev, A. (2024). THE ISSUE OF JUSTICE IN THE WORK "MAKTUBOTI AMIR HAYDAR". *Современные подходы и новые исследования в современной науке*, 3(7), 155-157.
5. Mirza Abd-al-Azim Sami, Tarix-i salatin-i mangitiya, Moskva., 1962
6. Traktat Axmada Danisha, Istoriya Mangitskoy dinastii, per. i predisl. I. A. Nadjafovoy, Dushanbe, 1967
7. Istoriya Kazaxstana v persidskix istochnikax. - T. 2. - Almati: Dayk-press, 2005. - S. 282.
8. Alexander Burnes. Travels into Bokhara being the account of a journey from India to Cabool, Tartary and Persia. - Vol. II. - New Delhi, Madras, Asian educational services, 1992. - P. 358.